



DAVLAT-XUSUSIY SHERIKCHILIGINING IQTISODIYOTGA TA'SIRI

dots. **Fayziyeva Dilafruz Shuxratovna**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0009-0008-6587-0855
dilafruz0306@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola "xususiy lashtirish, milliy lashtirish va davlat-xususiy sherikligi" bilan tanishtirish uchun tayyorlangan bo'lib, davlat-xususiy sherikligi sohasini tartibga solish va xususiy lashtirish, milliy lashtirish fanining mohiyati va uning asoslari, sohalarning rivojlantirish ishsizlarni ishga jalb qilish hamda funksional vazifalarini belgilash keng yoritilgan. Insoniyat tarixida yer hamisha alohida o'rinni egallab, unga bo'lgan munosabat hozirgi kunga qadar ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Inson doim yerga egalik qilish, undan xo'jalik maqsadlarida foydalanib daromad manbaiga ega bo'lish uchun harakat qilgan hamda kurashib kelganligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sherikchiligi, byudjetlar tizimi, sohani tartibga solish, davlat xizmatlari, loyiha konsepsiysi, qonunchilik bazasi, xususiy sektor.

ВЛИЯНИЕ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЕРСТВА НА ЭКОНОМИКУ

доц. **Файзиева Диляфруз Шухратовна**
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. Данная статья подготовлена для ознакомления с «приватизацией, национализацией и государственно-частным партнерством». В ней дается комплексный обзор регулирования и приватизации сектора государственно-частного партнерства, сущности и основы науки о национализации, развития секторов, занятости безработных и определения функциональных задач. Земля всегда занимала особое место в истории человечества, и связь с ней не утратила своего значения и по сей день. Было проанализировано, что люди всегда стремились и боролись за то, чтобы владеть землей, использовать ее в экономических целях и сделать источником дохода.

Ключевые слова: государственно-частное партнерство, бюджетная система, регулирование отрасли, государственные услуги, концепция проекта, правовая база, частный сектор.

THE IMPACT OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIPS ON THE ECONOMY

assoc. prof. **Fayzieva Dilafruz Shukhratovna**
Tashkent State University of Economics

Abstract. This article "privatization, nationalization and public-private partnership" prepared to familiarize yourself with the regulation and privatization of the public-private partnership sector, the essence of the science of nationalization and its foundations, the development of industries, attracting the unemployed to work, and functional tasks. The designation is widely publicized. The earth has always occupied a special place in the history of mankind, and the attitude towards it has not lost its significance to this day. It is analyzed that man has always tried and struggled to own land, use it for economic purposes and obtain a source of income.

Keywords: public-private partnership, budget system, industry regulation, public services, project concept, legal framework, private sector.

Kirish.

Davlat-xususiy sherikchiligi sohasi O'zbekiston uchun yangi bo'lsa-da, bu sohada qonunchilik bazasi ishlab chiqilishidan oldin ayrim yo'nalishlarda davlat-xususiy sherikchiligi loyihalari bo'lgan. Amaliyotda bu tajribadan maktabgacha ta'lim muassasalarini qurishda foydalanilgan. Lekin bu keng tarmoq bo'lib rivojlantirilmagan. Demak, bu borada oz bo'lsa ham tajribaga egamiz.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida»gi farmonida ustuvor vazifalardan biri sifatida davlat-xususiy sherikligini kengaytirish deb alohida keltirib o'tilgan Aynan DXSH bo'yicha qonun ishlab chiqish jarayonida bo'lib, bevosita meyoriy-huquqiy asoslari shakllantirilayotgan mazkur hamkorlikni turli shakllarda rivojlantirish uchun har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, mintaqalarda DXSHning turli-tuman shakllarini rag'batlantirish, mamlakat va mintaqalarni strategik rivojlantirish borasida ishlab chiqilgan dasturlarga muvofiq DXSHni qo'llash sohasini kengaytirish, DXSH loyihalari bozorini rivojlantirishni ta'xminlash, mahalliy va xorijiy xususiy investorlarning takliflarini rag'batlantirish, mamlakat iqtisodiyotining "o'sish nuqtasi"ni qo'llab-quvvatlash, loyihalarni amalga oshirishga o'zga sub'ektlarning foydalanimayotgan resurslarini jalb etish orqali DXSH faoliyatini yanada rivojlantirish imkonini beradi (Mirziyoyev, 2017).

Davlat-xususiy sherikchiligi iqtisodiyotga ta'siri eng avvalo, xarajatlar qisqaradi. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, davlat-xususiy sherikchiligi bo'yicha loyihalarning umumiy xarajatlari, to'g'ridan-to'g'ri bitim bo'yicha loyihalarga nisbatan 20-30 foizgacha qisqaradi. Bu nimaning hisobiga bo'ladi? Davlat-xususiy sheriklik loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish, unga ketadigan xarajatlarning chuqur tahlili, qulay hududni tanlash, malakali mutaxassislarini jalb qilish barchasini o'z zimmasiga oladi. Boshqacha aytganda, davlat xizmatlari bepul amalga oshiriladi. Xususiy sektor esa mavjud xavf-xatarni bo'yniga olib, loyihani moliyalashtiradi. Eng asosiysi, davlat ushbu loyihalarni tartibga solishda o'z vakolatlarini saqlab qoladi. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarida davlat tomonidan qo'shiladigan hissa xususiy sherik majburiyatları orqali qoplanadi.

Adabiyotlar sharti.

Hamkorlar o'rtasidagi sheriklik (hokimiyat organlari va biznes) turli tuzilmalar doirasida har xil ko'lamdag'i vazifalar va kompetensiyalar bilan amalga oshirilishi mumkin (Shishkina, 2024). Rossiya olimlari asarlarida "DXSh" atamasi quyidagicha izohlanadi: "Davlat-xususiy sheriklik davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning huquqiy jihatdan mustahkamlangan shaklidir. Davlat va xususiy mulk, muassasalar va korxonalar tomonidan iqtisodiy faoliyatning keng doirasi bo'yicha ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish maqsadida amalga oshiriladigan va ko'rsatiladigan xizmatlar". Varnavskiy (2018) ichki iqtisodiy nazariya va amaliyotda DXSh talqinlarining ko'pligini quyidagi holatlar bilan izohlaydi:

1) mavzuning xiralashishi, chegaralarning noaniqligi va zamonaviy iqtisodiyotning DXSh kabi murakkab hodisasini belgilaydigan me'yoriy-huquqiy bazaning cheklanganligi;

2) DXSh hozirda nisbatan yangi hodisa sifatida harakat qilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, Varnavskiy (2010) davlat-xususiy sheriklik ta'rifini beradi: DXSh – bu davlat va kommunal mulk ob'ektlariga, shuningdek davlat va munitsipal organlar, muassasalar va korxonalar tomonidan bajariladigan va ko'rsatiladigan xizmatlarga nisbatan davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro ta'sir shaklini birgalikda moliyalashtirish va xatarlarni taqsimlashni o'z ichiga olgan ma'lum muddatga qonuniy ravishda mustahkamlangan.

Davlat ishtirokidagi korxonalarini xususiylashtirish masalasi xorij ma mahalliy tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilayotgan ilmiy tadqiqot ishlardan biri hisoblanadi. Jumladan xorijda Connell, Mankiw, Samuelson (2016), William kabi tadqiqotchilar

xususiylashtirishning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri masalalariga oid ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Mahalliy tadqiqotchilardan yana biri, Mamayusupova (2021) davlat-xususiy sheriklikni milliy iqtisodiyotda barqaror o'sishni ta'minlash vositasi, muhim strategik loyihalarni moliyalashtirish manbai sifatida baholaydi. Shuningdek, Maxmudov, (2020) davlat-xususiy sheriklikni innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning rag'batlantiruvchisi ekanligini ta'kidlaydi, uning fikricha, davlat-xususiy sheriklik xususiy investitsiyalar oqimining kengayishiga, davlat zimmasiga yuklatilgan vazifalarning xususiy sektorga o'tkazilishi orqali budjet xarajatlarini maqbullashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.


Metodologiyada analiz, sintez usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Davlat xususiy sherikchiligining yana bir ijobiy jihatlaridan biri iqtisodiyotni raqobatbardoshligini ko'tarishdir. Xususiy tomon raqobatdoshlaridan ko'ra ko'proq foya olish maqsadida bozordagi talabni sinchkovlik bilan o'rganadi. Natijada, xizmat sifatini oshirishga intiladi. Eng muhim jihat shundaki, xususiy sektor davlatga qaraganda tashabbuskorona fikrlaydi. Ichki talabni yaxshiroq tushunadi, iste'molchilar xohish-istagini hisobga oladi. Chunki sherikchilik uzoq muddatga kelishiladi va jiddiy xatarlardan iborat bo'lishi mumkin.

Agentlik investorlarga yordam beradi unda agentlik o'z oldiga qanday maqsadlarni qo'yan? Birinchidan, muassasa sohada yagona davlat siyosatini yuritadi. Masalan, loyihaga doir hujjatlarni tayyorlashda ko'maklashadi va ma'qullaydi. Ikkinchidan, kadrlarni tayyorlaydi va loyihalarni monitoring qiladi, tender o'tkazadi, ikkala tomonning huquqiy manfaatini himoya qiladi, investorlar, xalqaro moliya va donorlik tashkilotlari, ilmiy va ekspert hamjamiyatlari, shuningdek davlat-xususiy sheriklik sohasining boshqa ishtirokchilari bilan hamkorlikni tashkil etadi. Umumiy qilib olganda, loyiha bilan bog'liq barcha munosabatlarda investorga ko'mak beradi.

Davlat-xususiy sherikchiligi bo'yicha mustahkam qonunchilik bazasi mavjudmi?



1-rasm. Davlat-xususiy sherikchiligi yangilash va doimiy takomillashtirish

Izoh: Davlat-xususiy sherikchiligi samarali va mustahkam ishlashi mumkin. Har bir element boshqa elementlar bilan o'zaro aloqada bo'lib, loyiha muvaffaqiyatiga hissa qo'shadi.

Ushbu tizim orqali Davlat-xususiy sherikchiligi samarali va mustahkam ishlashi mumkin. Har bir element boshqa elementlar bilan o'zaro aloqada bo'lib, loyiha muvaffaqiyatiga hissa qo'shadi.

O'zbekistonda davlat-xususiy sherikchiligi bo'yicha etaricha huquqiy baza mavjud. Joriy yilning 10 mayida O'zbekiston Respublikasining «Davlat-xususiy sherikchiligi to'g'risida» gi Qonuni imzolandi. Ushbu yirik huquqiy hujjat davlat va xususiy sektorning qonuniy manfaatlarini himoya qiladi. Unda ikkala tarafning huquq-majburiyatlari aniq belgilab berilgan. Qonun loyihasi Moliya vazirligi tomonidan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ko'magida tayyorlandi. Osiyo taraqqiyot banki, Jahon bankining Xalqaro moliya korporatsiyasi ekspertlari fikrlaridan ham foydalanildi. Dunyoning etakchi davlatlari: AQSh, Germaniya, Fransiya, Rossiya, Qozog'iston, Belarustajribasi o'rganildi.

Davlat o'z sherigini tanlashda qonunda belgilanganidek, hukumat o'z loyihamalarini keng jamoatchilikka e'lon qiladi va ushbu loyihalarga qiziqish bildirgan investorlar o'rtasida tender o'tkazadi yoki muzokaralar asosida ham sherigini tanlashi mumkin. Bundan avval loyiha ikki bosqichli jarayondan o'tadi: loyiha konsepsiyasini tayyorlash va texnik-iqtisodiy tahlil (loyihaning texnik xavfsizligi va moliyaviy xaratjatlar). Undan so'ng esa ishtirokchilar o'rtasida ikki bosqichli tender o'tkaziladi. Davlat eng kam xarjli rejani taqdim etgan xususiy sektor bilan sheriklik qiladi. Shundan so'ng g'olib chiqqan ishtirokchi bilan muzokaralar o'tkazadi va bitim imzolanadi. Xususiy tomonga quyidagi talablarga javob berishi lozim: huquqiy layoqatga ega bo'lish, ishga layoqatlilik, to'lay olish qobiliyati, zarur moliyaviy, moddiy-texnik tajriba va mehnat resurslari borligi.

Davlat-xususiy sherikligining asosiy vazifasi O'zbekistonning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun davlat va xususiy sheriklarning samarali o'zaro harakatlanishi uchun sharoit yaratish hamda iqtisodiyotga davlat va xususiy sheriklar resurslarini jalb qilish hisobiga xususiy investitsiyalarni jalb qilish hisoblanadi.

Infratuzilmaviy loyihamalar – yo'llar, aeroportlar, kasalxonalar, maktablar, chiqindilarni yig'ish va qayta ishlov berish, quvvatning yangilangan manbasi va h.k.da hukumat, jamiyat va biznes-hamjamiyat o'rtasidagi o'zaro harakatning yangi tamoyillarini ishlab chiqishda muvaffaqiyatli qadam bo'lishi zarur bo'luvchi DXSh ga asoslangan loyihamaga bosh sabab bo'ladi.

Xulosa va takliflar.

Davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish jarayonida ishlab chiqarilgan yoki etkazib berilgan tovarlarning(ishlarning, xizmatlarning) muayyan miqdorini yoki bir qismini iste'mol qilganlik yoki ulardan foydalanganlik uchun to'lovga yo'naltiriladigan O'zbekiston Respublikasi byudjetlari tizimining byudjet mablag'lari; •Byudjet ssudalarini, qarzlarini, grantlarini, kredit liniyalarini va moliyalashtirishning boshqa turlarini berish; •O'zbekiston Respublikasining davlat kafolatlari; •Soliq imtiyozlari va boshqa imtiyozlar; •Boshqa kafolatlar va kompensatsiyalar. O'zbekiston hukumati ijtimoiy, transport va kommunikatsiya infratuzilmasi qurilishi va modernizatsiyasiga jalb qilish kabi ijtimoiy muhim infratuzilma loyihamalarini amalga oshirishga xususiy sektorni jalb etish bo'yicha faol harakat qilib kelmoqda.

Davlat-xususiy sheriklik mexanizmi milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi va mamlakatda innovatsion faollik darajasini oshirish strategiyasini amalga oshirish borasida jozibadorlik kasb etadi. Ushbu vazifalarni to'laqonli bajarish borasida hukumat va biznes o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash tendentsiyasi kuzatiladi. O'zaro hamkorlikning mazkur shakli o'zaro manfaatli hisoblanadi, chunki u davlat mablag'lari aylanmasi samaradorligini oshirishga, iqtisodiyotdagi investitsiyalar va innovatsiyalar ulushini kengaytirishga, ustuvor tarmoqlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan bir qator muammolarni hal qilish orqali byudjet xaratjatlarini kamaytirishga va daromadlarini oshirishga yordam beradi. Darhaqiqat, davlat-xususiy sheriklik orqali innovatsiyalarni rag'batlantirish muvaffaqiyatli boshqaruv va umuman jamiyat farovonligining kalitidir

Adabiyotlar /Литература/Reference:

Denisenko A, (2024) Saturated Bioisosteres of ortho-Substituted Benzenes. *Angewandte Chemie* 132 (46), 20696-20702.

Mirziyoyev Sh.M. (2017) Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.

Mamayusupova, I. K. (2020). On the psychological criteria and factors of origin of conflicts that arise between young people. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 02 (82), 630-633.

Qonun (2014) O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 06.05.2014 yildagi O'RQ-370-sون. O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi.

Samuelson DJ, et al., (2016) Identification and functional analysis of acute myeloid leukemia susceptibility associated single nucleotide polymorphisms at non-protein coding regions of RUNX1. *Leuk Lymphoma*. Jun;57(6):1442-9. PubMed PMID: 26374622.

Varnavsky V. G., Klimenko A. V., Korolev V. A., (2010) Public-private partnership: theory and practice, Moscow, GU-VShE [Google Scholar].

Варнавский В.Г. (2018) Роль США в мировой промышленности и торговле как глобальная проблема // Контуры глобальных трансформаций: политика, экономика, право. Т. 11. № 2. С. 100–112. DOI: 10.23932/2542-0240-2018-11-2-100-112.